



AHMAD A'ZAMNING "NOVELLA" JANRIDA IJODIY MAHORATI.

Mardiyeva Dilnoza Zafar qizi.

Samaqand Davlat Universiteti qoshidagi
Markaziy Osiyo tillari va ma'daniyati instituti,
filologiya fakulteti 402-guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18345519>

Annotasiya

Ushbu maqolada adabiyotimiz vakillaridan biri Ahmad Azamning novella va hikoya janrlaridagi mahoratiga, uslubiga nazar tashlaymiz. Va o'z asarlariga yondashuvi, asarlardagi obrazlar tahlili va shu bilan birga Ahmad A'zam ijodiga qiziqqan olim va olimalarning shaxsiy fikrlarining mulohazalari bilan tanishasiz. Adabiyot inson ruhiyatini poklovchi omil sanaladi.

Kalit so'zlar: novella, kinoya, jamiyat, hayotiylik, uslub, obraz, publististika.

70- yillar adabiyotida va usha yilda ijodga kirib kelgan barcha ijodkorlarning asarlarida falsafiy- axloqiy munosabatlarda keng yoritib o'tiladi. Shunday insonlardan biri yozuvchi, munaqqid, ssenarist, telejurnalist Ahmad A'zamdur. "O'zlik", "Xalqning ko'ngli", "To'rtinchi hokimiyat" kabi hujjatli film, bundan tashqari, "Oyning gardishi", "Bu kunning davomi", "Asqartog' tomonlarda", "Soyasini yuqotgan odam", "Hali hayot bor" degan nasriy asarlari bor. Shu bilan birgalikda, "Mas'ul so'z" nomli adabiy-tanqidiy maqolalar to'plamlari, "O'zi uylanmagan sovchi", "Ro'yo yoxud Gulistonga safar" romanlari chop etilgan. Ahmad A'zam asarlarida ko'proq falsafiy fikrlar va ong osti o'ylovlar bilan namoyon bo'ladi. "Ahmad A'zam asarlarida odatdagiday boshi va oxiri bor voqealar, sabab va oqibat doirasida harakatlanadigan qahramonlar tasvirlanmaydi. Bir qarashda ijtimoiy salmoqdan mahrum mayda tafsilotlarning adoqsiz silsilasi aks etganday tuyulguvchi bu asarlarni tushunish oson kechmaydi. Chunki bu tafsilotlar zamiridagi ma'noni o'qirmanning o'zi topishi kerak bo'ladi". Chetdan olib qaraganda, oddiy matindek ko'rinsada, ammo o'qib bo'lgandan so'ng inson tafakkurini cho'lg'ab oladi. Ahmad A'zam roman, hikoya, novella, esse kabi kichik janrlarda ijod qilgan va ijodining serqirra ekanligini asarlari misolida isbotlagan. Hozirgi payt nuqtai nazari bilan olib qaralganda asarlaridagi izchillik, tabiat manzaralarining tasviri, shaxslar orasidagi munosabat aks etgan. Ma'lumot o'rnida shuni ham ta'kidlash joizki, kichik epik janrlarni adabiyotshunos Y. Solijonov quydagicha: "Pamflet, feleton, ocherk, novella, esse kabi turlarga ajratib tasnif qiladi. [1]"

Yozuvchi Nazar Eshonqul ta'kidlaganidek, "Janr-nisbiy tushuncha. Yozuvchi o'z fikrini qaysi shaklda eplab ayta olsa, o'sha uning janridir". [2] Aytish joizki, bugungi modern o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Nazar Eshonqul



Ahmad A'zam ijodi haqida shunday yozadi: "Bu novellalarda biz o'zbek nasrida nisbatan yangi qahramon – jamiyatda, hayotda o'z o'rnini anglayotgan, anglash orqali uyg'onayotgan fikr, uyg'onayotgan o'zlikni, uyg'onayotgan "men"ni anglatuvchi qahramon paydo bo'ldi. Bu novellalarda "men"dan boshqa qahramon yo'q: ijobiy ham, salbiy ham, jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi ham, eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu "men"ning o'zi, ya'ni o'zi bilan o'zi gaplashayotgan odam. Ahmad A'zam bu obrazi bilan o'zi mansub avlodning butun boshli konsepsiyasini ifodalab berganga o'xshaydi".[3]

Ahmad A'zamning "Qulf tili" nomli novellasi o'quvchi uchun mushohadali, tanqidchi uchun o'ylovli asar hisoblanadi. Novelladagi elementlar - qulf va eshik. Qulning borligi har kimning uyga eshikni ochib kirib kelavermasligini ta'minlovchi. Aytishimiz kerak-ki, bu novella ko'chma ma'noda yozib borilgan asardir. Inson ko'ngil eshigini ochish uchun unga yaxshi muomala, shirin so'z bo'lishi lozim. Agarda inson yaxshi-yu yomonni birdek qabul qiladigan bo'lsa, oxiri yaxshilik bilan yakunlanmaydi. Novella davomida qulf tilidan aytilgan shunday gap bor: "Men bo'lmasam, bu eshik qanday kun ko'rar ekan, ochilib yopilaverib edi og'ib qolsa kerak". Novella shu darajada qiymati yuqori-ki, ko'p hayotiy voqealarni xulosalashga, tushuncha paydo bo'lishiga yordam beradi. Bunday salmoqli va ta'sirchan ijod qilish uchun Ahmad A'zam bo'lish kerak. Novella personajlari qatorida mushuk va kompakt bo'lib, ularning janjallari juda murakkab va o'zlariga xos qilib berilganki, ifodalanishi shaxsiy xususiyatlarning yoritilishiga olib keladi. Ularning janjalini eshitib turgan qulf so'zga kiradi va shunday dedi: "Gap shundaki, ko'ppak ham, mushuk ham o'z tilida gapirishgan bo'lsa-da, ikkalasi ham bir-birini juda yaxshi tushunishardi, chunki ikkalasi ham bir ko'chaning fuqarosi edi".[4] Bu holat bilan Ahmad A'zam jamiyatidagi ayrim shaxslarni qoralagan va buni "tag ma'no" bilan ochib bergan. Novellada eshik yoniga har xil jamiyat vakillari keladi, ulardan turli gaplar, maqsadlar eshitadi. Ammo qancha o'rinishmasin eshikni ocha olmaydi. (Tushunishimiz kerak-ki, eshik ko'ngilga o'xshatilgan, qulf esa so'zga)."Qulf tili" novellasiga kelsak, inson hayoti davomida har xil shaxslarga duch kelishi aniq, lekin ba'zilar sodiqlik ko'rsa, ko'pdan, sotqinlik, xiyonat, ko'rolmaslik va shunga o'xshash illatlarni ko'rishadi. Ahmad A'zam atrofida shunday insonlar bo'lgan, bulardan pand yegan, yomonlik ko'rgan va asta sekinlik bilan mana shunday tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan novella va hikoyalar yozilgan. Ahmad A'zam hamma uchun birdek odam bo'lgan, yaxshiga ham yomonga ham. Novella so'nggida quydagi jumla keltirilgan:

"Bu kimsa qulfga ajnabiy ham emas edi.



Bu kimsa oddiy qulfbuzar o'g'ri edi".

Har qanday qulf(ko'ngil) yaqinlik, shirinso'z, oqibat, yaxshilik sofdillik bilan ochilishi va sodiqlik bilan hukmronlik qilishi mumkin. Har qanday qulfning ochilishi sehrli so'zdir. Ahmad A'zamning novellasi jamiyatimizdagi ayrim insonlarning ko'ngil ko'chalarini go'zallashtiradigan, yo'llarini to'g'irlashga tayanch bo'ladigan asarlardir. Ahmad A'zam har bir yozuvchi kabi yozar edi edi, lekin u chin insoniylik xislatlarini ulug'lab, putur yetkazmasdan oydinlashtirar edi. Uning turmush o'rtog'i Farog'at Kamolova shunday e'tirof etadi: "Umrining so'nggi nafasigacha yozdi, bir zum bo'lsa-da, yozishdan to'xtamadi, tanasida og'riqlar bezovta qilganida ham u yozishdan to'xtamadi. Yozish, ijod qilish uni hayotga qaytardi, unga kuch berib turdi. Bejizga yozuvchi mana bu jumalarni bitmagan: "Ko'p ishni qilib ko'rdim, turli yumushga qo'l urdim. Lekin hech biri yozishga, yozish beradigan mashaqqatli zavqqa teng kelmaydi..."[5].

Ahmad A'zam ijodidagi eng katta asar deb aytishimiz mumkin bo'lgan bir asar bor: bu ham bo'sa "Ro'yo yoxud gulistonga safar" idir. Bu asar haqida Ahmad A'zam ijodini o'rganyotgan bir olim tomonidan shunday tarif beriladi. "Kitobda bosh qahramon adashib, qattiq intizom o'rnatilgan hayoliy G'uliston davlatiga borib qoladi. Unda barcha odamlar o'z tanasini to'liqligicha zanjir bilan o'raydi va butun umrini shunday o'tkazadi. Ular bolaligidanoq zanjirga burkanadi, mamlakatda g'ayriinsoniy zanjir mafkurasi olib boriladi, boshqa davlatlardagi zanjirsizlar adashgan bandalar sifatida ko'riladi. G'uliston hech kimga ko'rinmaydigan bir hukmdor tomonidan boshqariladi, hamma unga sig'inadi. Bu o'rinda asarda "1984" elementlarini sezish mumkin. Lekin asosiy farq shundaki, Ahmad A'zam qahramoni G'ulistonga adashib kelib qolsa, Oruell personaji o'sha jirkanch va inson erkiga zid davlatda yashaydi. Siz G'ulistondan qachondir chiqib ketishingizga ishonasiz, Uinston bilan birga esa otuvga hukm qilinasi. Ahmad A'zam asarida kelajakka bo'lgan umid seziladi. Bir qator epizodlarda buni ko'rish mumkin".

Adabiyotlar:

1. Ahmad A'zam "Soyasini yo'qotgan odam". Toshkent-2004 b-349, B-203-205
 2. Normatov U., Janr imkoniyatlari, Toshkent, 1970-yil.
 3. "O'zbek adibi va adabiyotshunosi Ahmad A'zam ijodiga chizgilar" Сўнги янги ланиш 12 декабр 2012
 4. Eshonqul N. "Mendan "men" gacha". T: Akademik nashr. 2014. -B.447
 5. sheraliyeva M. "Ahmad A'zam hikoyalarida kinoya".
1. www.Wikepediya.uz;
2. fayllar.org;



3.Arxiv.uz.

4.www.ziyouz.com kutubxonasi